



Fidoyilik —
Vatanga xizmat demak!

2024-yil 18-may, shanba,
59 (23.936)-son

**KUN
HIKMATI**

Haqqa
yetishmoqning
yagona yo'li
unga munosib
bo'lmoqdir

1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan



www.zarnews.uz



https://www.facebook.com/zarnews.uz



@zarnews_uz



https://twitter.com/zarnews_uz

Jomboy tumanidagi “Sof Expo Samarqand” ko'rgazmalar majmuasida gastronomik turizm, to'qimachilik, charm-poyabzal, qurilish materiallari, oziq-ovqat, elektro-texnika, farmatsevtika sanoati, mebelsozlik va gilam mahsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan hududiy tarmoqlararo sanoat yarmarkasi va sanoatchilar forumi o'tkazildi.

Yarmarkaning ochilishida Prezident maslahatchisi o'rinbosari G.Saidova, Bojxona qo'mitasi raisining birinchi o'rinbosari I.Muxtorov va viloyat hokimi E.Turdimov, tuman va shaharlar hokimlari va sohaga mas'ul o'rinbosarlar ishtirok etishdi.

Sanoat yarmarkasida viloyatimiz ishlab chiqaruvchilari bilan birgalikda Buxoro, Toshkent, Farg'ona viloyatlari va rossiyalik tadbirkorlar ham qatnashdi. Ko'rgazmada 2500 ta sanoat korxonasi 240 dan ortiq mahsulotini taqdim etdi. Jumladan, 240 ta korxona 7,5 mingdan ortiq import o'rnini bosuvchi mahsulotlari bilan qatnashdi. Bu galgi ko'rgazmada korxonalar tomonidan elektr radiatorlar va konvektorlar, elektr jihozlar, yangi turdagi TMG rusumli transformatorlar, o'simliklarni himoyalash uchun kimyoviy vositalar, gipsokarton uchun qog'oz, avtomobil ehtiyot qismlari, avtomobillarga yoqilg'i quyish moslamalari kabi 80 turdan ortiq raqobatbardosh mahsulotlar namoyish qilindi.

Ko'rgazmada ishlab chiqaruvchilarni majburiyatlardan emas, balki manfaatdorlik ustuvor holda qatnashayotganligini ko'rish mumkin.

Yarmarkada oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlashga katta ahamiyat berilgan. Viloyatdagi oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqaradigan va qayta ishlaydigan 22 ta yirik va kichik korxona uchun alohida joylar ajratilib, ular tomonidan import qilinayotgan va mahalliy lashtirishga tavsiya etilayotgan xomashyo namoyish etildi.

Korxonamiz qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash va eksport qilish bilan shug'ullanadi, - deydi “Bulung'ur Sandvik” mas'uliyati cheklangan jamiyati ish yurituvchisi Abbos Mo'minov. - Korxonamiz tasarrufidagi 300 gektar yerda va fermer xo'jaliklari bilan shartnoma asosida yetishtirilgan mahsulotlardan kuniga 15 tonnadan 70 tonnagacha qayta ishlab, AQSh, Yevropa va Osiyo

Mahsulotlarni qayta ishlashga e'tibor



davlatlariga eksport qilamiz. Har bir davlatning vofiqlik sertifikatini olingan va shu asosda mahsulot sotamiz. Hamkorlik doirasida joriy yilning birinchi choragida 2,5 million dollarlik mahsulot eksportini amalga oshirdik. Bugungi ko'rgazmaga quritib qayta ishlangan 20 ga yaqin mahsulotimizdan



namunalari olib keldik va yangi hamkorlik kelishuvlariga erishish niyatidamiz.

Forum doirasida panel sessiya va muhokamalar ham o'tkazildi. Jumladan, oziq-ovqat mahsulotlari importini qisqartirish, mavjud ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanish va mahalliy lashti-

rishni chuqurlashtirish mavzusidagi muhokamada sanoati rivojlanmagan davlat boy bo'la olmasligi ta'kidlandi.

- 2022 yilda viloyatimizda 65 million dollarlik oziq-ovqat mahsuloti import qilingan, o'tgan yil esa bu raqam 21 million dollarga qisqargan, - dedi viloyat hokimi E.Turdimov. - Hozirda viloyatimizda oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi 2200 ta korxona bor va ularning 1966 tasi faoliyat yuritmoqda. Bu yo'nalishdagi korxonalar soni keyingi besh-olti yilda qariyb ikki barobar oshdi. Sektor rahbarlari va iqtisodiy blok mas'ullari bilan birgalikda vaqtincha ishlamasdan turgan 234 ta korxona o'rganilib, faoliyatini tiklash choralari ko'ryapmiz. Ishlab turgan korxonalarni esa to'liq quvvatda ishlashini ta'minlash va asosiysi ilimga asoslangan ishlab chiqarishni yo'lga qo'yib, talabga mos mahsulot taqdim qilishga e'tibor qaratishimiz kerak.

Ko'rgazma doirasida alohida pavilonda viloyatimizdagi oliy ta'lim muassasalarining 70 ga yaqin innovatsion startap loyihasi namoyish etildi. Jumladan, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali raqamli kutubxona, Tailandcha muzqaymoq, kapideim san'ati (kapalakli buket), rezinart san'ati (chiqindidan suvenir ishlab chiqarish), 3D printerda mahalliy va xorijiy sayyohlar uchun binolar maketlari, esdalik sovg'alar va suvenirlar ishlab chiqarish va mobil telefon orqali boshqariladigan uydaqi is gazining me'yorini o'Ichovchi qurilmalar namoyish qilindi. Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti talabalari esa o'rik turshagini qayta ishlab, maydalagan holda bir marta foydalanishga moslab qadoqlash texnologiyasini taqdim etishdi. Shuningdek, institut talabasi Sevinch Alibekova matsarella pishlog'ini ishlab chiqarishda katta miqdorda ajralib chiqadigan zardobdan sifatli va iste'molga yaroqli sariyog' ishlab chiqarish texnologiyasi bilan qatnashdi. Bu loyiha viloyat hokimligi huzuridagi tadbirkorlar kengashi tomonidan 45 million so'm miqdorida moliyalashtirilgan va oliygohning o'zida mahsulot ishlab chiqarish uchun zarur uskunalar xarid qilinib, 3 ta ish o'rnini yaratilgan.

Ko'rgazma doirasida tarmoq va hududiy korxonalar o'rtasida hamkorlikni yo'lga qo'yish va kengaytirish uchun B2B, B2G formatidagi uchrashuvlar tashkil etildi.

O'ktam MUSTOYBERDIYEV, Baxtiyor MUSTANOV (foto), “Zarafshon” muxbirlari.

Yurtimiz baxshilari Qo'rg'onda yig'ildi



Tumanda “Qo'shrabot navosi” nomli Respublika baxshilar tanlovi hamda “Ergash Jumanbul o'g'li ijodi va Qo'rg'on dostonchilik maktabi adabiy merosining Yangi O'zbekiston ma'naviy-madaniy taraqqiyotidagi o'rnini” mavzusidagi xalqaro konferensiya o'tkazilmoqda.

Baxshilar tanlovida ishtirok etish uchun mam-lakatimizning turli hududlaridan 100 nafarga yaqin baxshilar tumanning Qo'rg'on qishlog'ida jama bo'ldi.

Olis qishloqda tashkil etilgan tadbir doirasida milliy o'yinlar, hunarmandlik mahsulotlari ko'rgazmasi, otlar poygasi va turli madaniy-ma'rifiy kechalar o'tkazilishi rejalashtirilgan.

Qo'shrabotliklarning hayoti o'zgaradimi?

Bu galgi suhbatimiz viloyat markazidan uzoq tumanning rahbari bilan bo'ldi. Muloqot chog'ida asosan odamlar turmush tarzi, bevosita ularning hayoti bilan bog'liq savollar berishga harakat qildik.

Dilshod Shakarboyevning javoblarini o'qib, Qo'shrabot tumanidagi mavjud holat haqida aniq tasavvurga ega bo'lishingiz mumkin.

- Bundan bir necha yil avval Qo'shrabot respublikadagi suv ta'minoti darajasi past 30 ta tumandan biri edi. Shu sabab hududdagi bu ahvolni yaxshilash uchun xalqaro kredit mablag'larini ham jalb etish choralari ko'rildi. Biroq uning samarasi sezilmayotgandek?

- To'g'ri, 2019-yilda tumanning aholisi 36 foizi markazlashgan ichimlik suv bilan ta'minlangan bo'lgan.

Shuning uchun Saudiya rivojlantirish fondi va OPEK fondlari ishtirokida umumiy qiymati 36 million dollar bo'lgan loyiha amalga oshirildi. Loyiha doirasida hudud 8

ta lotga ajratilib, bugungi kungacha 7 ta lotda belgilangan ishlar to'liq bajarilib, foydalanishga topshirildi.

Tuman markazi va 78 qishloq aholi punktida 55 ta ichimlik suv inshooti, 883,8 kilometr tarmoq qurish va rekonstruksiya ishlari amalga oshirildi. Natijada 32 mahalladagi 11200 ta xonadon markazlashgan toza ichimlik suv bilan ta'minlandi.

Hozirgi kunda 3-lotda qurilish ishlari davom etmoqda va joriy yilning 4-choragida yakunlanishi ko'zda tutilgan.

Umuman, bugungi kunda tuman aholisining 79 foizi ichimlik suv bilan ta'minlangan. Ya'ni, bu borada



hali qilinadigan ishlar ko'p.

Joriy yilda 2 ta suv inshootini rekonstruksiya qilish bilan birga, 8 ta yangi suv nasosi o'rnatish va 12 ta suv nasosini ta'mirlash, 2,5 kilometr tarmoq tortish rejalashtirilgan. Bundan tashqari, 2025-yil Investitsiya dasturiga 9 ta qishloq aholi punktida suv inshootlari qurish, 56 kilometr tarmoq tortish taklifi berilgan.

- O'tgan yili bir qator tumanlarda, jumladan, Qo'shrabotda

ham quduqlar burg'ulashga moratoriy joriy etildi. Bu tumanda shundoq ham og'ir bo'lgan vaziyatni yanada chigallashtirmaydimi? Shunday vaziyatda qo'shrabotlik bog'bon va mirishkorlar qanday yo'l tutmoqda?

- Agar jim kuzatib turilsa va faqat cheklovlarigagina amal qilinsa, vaziyat chigallashadi. Lekin uni o'nglash choralari ko'rilmogda. Misol uchun, bog' va tokzorlarda suv tejavchi texnologiyalarni joriy qilgan va burg'ulangan tik quduqlar uchun bog'dorchilik va issiqxona xo'jaligini rivojlantirish agentligi tomonidan subsidiya ajratiladi.

Joriy yilga qadar tumanimizdagi 65 ta fermer va qishloq xo'jaligi korxonasi tomonidan ayni maqsadda 21 milliard 618 million so'm subsidiya mablag'lari o'zlashtirildi. Natijada 3000 gektardan ziyod bog' va uzumzorda suvni tejavchi texnologiyalar joriy etildi. Bu bilan yer osti suvi 30-40 foiz tejalishiga erishildi. Yalpi hosildorlik 20-30 foizga oshdi.

(Davomi 2-sahifada) >>>

Samarqand xalqaro turizm markazida triatlon va paratriatlon bo'yicha “World Triathlon Cup Samarkand-2024”, “World Triathlon Para Cup Samarkand-2024” musobaqalari va O'zbekiston chempionati o'tkazilmoqda.

Triatlon:

“Parij–2024” Olimpiadasiga yo'l Samarqanddan boshlanadi



Mazkur tadbirlarda qatnashish uchun bugun Samarqandga 60 ga yaqin mamlakatlarining sport delegatsiyalari, Xalqaro triatlon federatsiyasi mutasaddilari kelgan.

- Respublika triatlon federatsiyasi, Sport vazirligi va viloyat hokimligi tomonidan shu paytgacha musobaqalarga tayyorgarlik doirasida zarur chora-tadbirlar ko'rildi, - deydi viloyat sport boshqarmasi boshlig'i Shuhrat Ro'ziyev. -Sportchilarni kutib olish, joylashtirish, ularga transport xizmati ko'rsatish, bellashuvlar o'tkaziladigan maskanlarni tayyorlash, umuman, barcha masalalar xalqaro talablar darajasida hal etilib, musobaqalarni yuqori saviyada o'tkazishga shay holatga keltirildi.

Jahon kubogi bahslarida 52 mamlakatdan 270 nafar sportchi qatnashadi. Jumladan, O'zbekiston milliy sportchisi Vatanimiz sharafigi

himoya qiladi. Ular nufuzli musobaqalarning 218 ta medallar jamlanmasi uchun kurashlarda ishtirok etadi.

Xalqaro musobaqalar oldidan o'tkazilgan matbuot anjumanida O'zbekiston Respublikasi sport vaziri A.Ikromov, O'zbekiston triatlon federatsiyasi bosh kotibi Yelena Kun musobaqaning ahamiyati hamda mezbos sifatida O'zbekistonning tanlangani, bu borada amalga oshirilgan ishlar bo'yicha batafsil ma'lumot berishdi.

Parij Olimpiadasi reyting ballarini taqdim etadigan Samarqand musobaqalarida jahon reytingida kuchli qatorida qayd etib kelinayotgan Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Irlandiya, Vengriya kabi o'nlab davlatlar sportchilari ishtirok etmoqda. Sportchilar umumiy uzunligi 40 kilometrni tashkil etadigan velopoyga, yugurish va suzish bahslarida g'oliblik uchun kurashadi.

Qo'shrabotliklarning hayoti o'zgaradimi?

(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada).

“Oqchopsoy” suv omborida suv taqsimlash va o'zi oqar suv quvurlarini yotqizish orqali 1500 gektar yangi yer o'zlashtirildi. Bundan tashqari, Chorloq mahallasining Ochobuloq qishlog'ida Oqtepasoy o'zanida “Oqtepasoy” sel suv omborini qurish rejalashtirilayapti. Ayni kunlarda ombor loyihasi tayyorlanmoqda.

- **Shunga qaramay, tumanda bog'dorchilik borasida o'sish, o'zgarish kuzatilmayotgandek, bizningcha. Davlat rahbari ko'chat qadagan yong'oqzor bunga misol bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, ming gektar uzumzor tashkil qilinishi haqida loyiha bog'yicha ham keyinchalik biror ma'lumot berilmadi.**

- Yong'oqzor bo'yicha siz aytgan holat 2017 yil tashkil topgan “Oqtepa unumdor zamin” fermer xo'jaligida bo'lgan. Xo'jalikka 700 gektar yer maydoni ajratilgan va dastlab 40 gektar yerda yong'oq, 20 gektarda gilos ko'chat ekish, 30 gektar tokzor barpo qilish boshlangan. 2018-yilda tashabbuskor fermer vafo-tidan keyin xo'jalikdagi ishlar to'xtab qoldi.

Shundan so'ng yer maydonining 640 gektari tuman hokimligi xazirasiga olinib, auksionsonga chiqarilmoqda. Bu yerda bugungi kungacha 68 nafar fuqaro tomchilatib sug'orish texnologiyasi asosida 50 gektar bog' va 70 gektar tokzor barpo qilgan.

Uzumzor masalasida 2023-yil 3-avgustda davlatimiz rahbarining 260-sonli qarori qabul qilingan. Qarorga asosan, tumanda 2023-2024-yillarda 1600 gektar maydonda tokzorlar barpo qilish belgilangan. Bugungi kunga qadar 84 ta fermer va qishloq xo'jaligi korxonalar tomonidan 918 gektar tokzor barpo etildi. Kuz oylarida qolgan tokzorlar ham barpo qilinadi.

- **O'tgan yili hunarmandchilik va kasanachilikni qo'llab-quvvatlash jamg'armasining 4 milliard so'm subsidiya mablag'lari asosida viloyat bo'yicha 678 fuqaro kasanachilik yo'nalishida ish bilan ta'minlangan. Biroq Qo'shrabot tumanida jamg'armaning bir so'm ham mablag'i o'zlashtirilmagan.**

- Bu yerda aniq sabab tufayli shunday holat yuz bergan. Chunki tumanda 20 nafardan ortiq hunarmand ro'yxatdan o'tkazilib, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limiga mahalla.uz platformasi orqali yuborilgan.

Qo'shrabot tuman kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limining maxsus hisob raqamiga ta'qiq qo'yilganligi sababli hunarmandchilik va kasanachilikni qo'llab-quvvatlash jamg'armasidan subsidiya mablag'larini to'lash imkoniyati bo'lmagan.

Joriy yil bo'limga mahalla.uz platformasi orqali yuborilgan 25 nafar tashabbuskor hunarmand va kasanachining arizalariga ijobiy xulosa berilgan.

- **Azaldan Qo'shrabotda yirik va mayda shoxli mol boqish asosiy daromad manbalaridan biri bo'lgan. Shu bois aholining go'sht va sutga bo'lgan talabi ichki imkoniyatlardan to'liq qoplangan. Ammo chorvadorlar yetishtirgan mahsulotni qayta ishlash, qo'shilgan qiymat yaratish yo'lga qo'yilmayapti.**

- Tumanning viloyat markazidan uzoqligi, eng yaqin temir yo'l stantsiyasi bilan oradagi masofa 60 kilometrni tashkil qilganligi mahsulot tan narxiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bundan tashqari, aholi punktlari tarqoq joylashganligi sut va tez buziluvchi mahsulotlarni yig'ib olish hamda qayta ishlashda ham muammolar keltirib chiqaradi. Ammo mu tayyor xomashyodan mahsulot ishlab chiqarishni yo'lga qo'yimaslikka sabab bo'lmisligi kerak. Shu jihatdan aytish mumkinki, ayni paytda Qo'ralos mahallasidagi “Qo'shrabot quality meat” mas'uliyati cheklangan jamiyat tomonidan oyiga 15 tonna go'sht mahsulotlari qayta ishlamoqda. Demak, qilish mumkin, faqat tashabbuskorlarni topish, ularni qo'llab-quvvatlash kerak, nazariyda.

Ushbu yo'nalishda istiqbolli loyihalar o'rganilyapti. Misol uchun, xitoylik tadbirkorlar bilan qo'y yungidan tayyor mahsulot ishlab chiqarish loyihasi tayyorlangan.

- **2022-yil oktabrida Qo'shrabot tumanida Koreya davlatining “HIBI International” Co. Ltd kompaniyasi bilan hamkorlikda to'g'ridan-to'g'ri 100 million dollar investitsiya hisobiga agrosanoat klasterini tashkil etish va loyiha doirasida 500 ta yangi ish o'rni yaratish rejalashtirilgan xabar qilingan. Keyinchalik biron joyda tilga olinmaganidan reja amalga oshmaganini taxmin qilish mumkin.**

Umuman, tumanda bu kabi “chalajoy” loyihalar, yillar davomida ro'yobga chiqmayotgan rejalor oz emas...

- Tuman hokimining 2020-yil 12-oktabrdagi qarori bilan “HIBI GROUPS” MChJ qo'shma korxonasiga soya, texnik kannabis o'simliklarini yetishtirish va eksport qilish uchun tumanning Ergash Jumanbulbul massividan 976,4 gektar yer maydoni ajratilgan.

Vazirlar Mahkamasiga taqdim etilgan bu loyihaga kannabis o'simligi (tarkibida giyohvand modda) bo'lganligi



sababli ruxsat berilmagan.

- **O'tgan yili davlat rahbari bir qator hududlar qatori Qo'shrabot tumani mahalliy byudjetidan maktablar ta'miri uchun mablag' berilmaganini tanqid qilgandi.**

Joriy yilda vaziyat o'zgaradimi?

- Darhaqiqat, o'tgan yili mazkur masalada biroz befarqlik bo'lgan. Ammo joriy yilda bu borada oldimizga katta rejalar qo'yganimiz.

Xususan, tuman mahalliy byudjetining xarajatlar smetasi-da maktablar joriy ta'miri uchun 951,4 million, binolarining isitish tizimini yaxshilashga 963 million so'm ajratish belgilangan.

Shuningdek, maktablarga mebel va jihozlar uchun 120 million, kompyuter va moddiy-texnik baza uchun 216,5 million, elektr hisoblagichlarni almashtirish uchun 105 million, boshqa xarajatlarga uchun 1 milliard 378,9 million so'm mablag' berish ko'zda tutilgan.

- **Bugungi kunda tuman axborot-kutubxona markazi vaqtincha boshqa binoda faoliyat olib bormoqda. “Yoshlar markazi” va istirohat bog'i haqida ham ijobiy fikr bildirish qiyin. Tumandagi 10 ming o'rinni “Mehnat” stadionining o'rindiqlari, yugurish yo'laklari achinarli holatda.**

Hudud yoshlarining bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish borasida yechimni kutayotgan muammolar shulardagina iborat emas, nazarimizda?

- Muammolar bor, lekin ularning yechimi bo'yicha ham ish olib borilyapti.

Misol uchun, axborot kutubxona markaziga bino qurish uchun yer maydoni ajratish ko'rib chiqilmoqda. Qurilish ishlari uchun xalq deputatlari tuman Kengashining joriy yil 22- fevraldagi qaroriga asosan, mahalliy budjet erkin qoldiq mablag'lari hisobidan 480 million so'm mablag' ajratilgan.

Bundan tashqari, ajratilgan 250 million so'm mablag'ga “Yoshlar markazi” va istirohat bog'ida ta'mirlash hamda ko'kalamzorlashtirish ishlari amalga oshiriladi. “Mehnat” stadionini yozgi mavsumga tayyorlash maqsadida qurilish materiallari va xo'jalik mollarini sotib olish uchun tuman hokimining farmoyishi asosida 42 million so'm mablag' ajratilyapti.

Umuman, tuman markazidagi istirohat bog'ida ertamiz egalari uchun barcha qulayliklarga ega yoshlar sayilgohi tashkil etilmoqda. Shuningdek, yoshlar ijod ko'chasi va kreativ park tashkil etiladi. Boverlo'p mahallasida barcha qulayliklarga ega unvsal maydon yaratish ham joriy yilga mo'ljallanyapti.

- **Mahalliy budjetdan ajratiladigan yirik summalar rejalashtirilayotgan haqida gapiryapsiz. Amalda buning iloji bormi?**

- Keling, ayrim raqamlarni keltirib o'tay. O'tgan yil mahalliy budjet prognoz rejası 66,6 milliard so'm belgilangan bo'lib, yil yakuni bilan 76,4 milliard so'mga bajarildi.

Mahalliy byudjet prognoz rejası joriy yilda 86 milliard so'm belgilangan, tahlillarga ko'ra, u 97,1 milliard so'm bo'lishi kutilmoqda.

- **Keyingi yillarda yurtimiz va Xitoy Xalq Respublikasi o'rtasida yaqin hamkorlik yo'lga qo'yilmoqda. Bu yaqinlikdan Qo'shrabot tumani va uning aholisiga biron naf bo'lyaptimi?**

- Chin o'lkasiga safarimiz davomida hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan manfaatli loyihalarni amalga oshirish bo'yicha bir qator kelishuvlarga erishganmiz. Shunday kelishuvlardan biri Xitoy Xalq Respublikasining Hebei texnologiya universiteti bilan bo'lgandi. Kelishuv doirasida 4 nafar yoshlarimiz ushbu universitetda imtiyozli ravishda o'qishga jo'nab ketdi.

Joriy yilning 25-26-aprel kunlar Veynan shahri hokimi Chen Xiaoyong boshchiligidagi delegatsiya Qo'shrabot tumaniga tashrif buyurdi. Mehmonlar “Qo'shrabot Loman Parranda” MChJ, “Alihan Organic Agro LLC” MChJ xorijiy korxonasi, tumanda barpo etilgan uzumzorlar bilan tanishdi.

Qo'shrabot tumani va Veynan shahri o'zaro anglashuv, teng huquqlilik va manfaatdorlik asosida qardosh shahar munosabatlarini yo'lga qo'yish niyatida iqtisodiyot, savdo, sog'liqni saqlash, ta'lim, qishloq xo'jaligi, fan-texnika, turizm va boshqa sohalarida hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha kelishuv bitimi imzolandi.

Tumanda uzumchilik bog'ini barpo etish va qayta ishlash, olma yetishtirish hamda qishloq xo'jalik parkini tashkil qilish loyihasi amalga oshirishga kelishib oldik.

- **Mazmunli suhbat uchun rahmat.**

Yoqubjon MARQAYEV suhbatlashdi.

BMT ma'lumotiga ko'ra, 2023-yil dunyo bo'yicha muhojirlar o'limi eng ko'p kuzatilgan yil bo'lgan. Tashkilotning “Yo'qolgan muhojirlar” loyihasi 8565 kishining o'limini qayd etgan va bu 2016-yildagi ko'rsatkichdan deyarli yarim ming kishiga ko'p. Shunday qilib, migratsiya masalalari, ayniqsa, keyingi yillarda jahon hamjamiyatini jiddiy tashvishga solayotgan mintaqaviy va mahalliy nizolar, ishsizlik, qashshoqlik kabi muammolar zahirida yanada ahamiyatli bo'lib bormoqda.

Chetga mardikor emas, mutaxassis sifatida boring

Tartibli migratsiya huquqlaringizni kafolatlaydi

Mamlakatimizda ham bu muammo yaqin 10 yil davomida kun tartibidan tushgani yo'q. O'tgan davrda hukumatimiz tomonidan tashqi mehnat migratsiyasini tartibga solishga qaratilgan 10 dan ortiq normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Prezidentning 2020-yildagi “Xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiyasi tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori shular jumlasidan. Ammo hamma ham bu imkoniyat va qulayliklardan xabardormi? Ulardan kim va qanday foydalanyapti? Shu va boshqa savollar asosida ma'lumot to'plashga harakat qildik.

ANGLIYAGA 324, JANUBIY KOREYAGA 76 NAFAR

Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi viloyat filialidan olingan ma'lumotga ko'ra, joriy yilning o'tgan 4 oyida viloyatimizdan 4405 nafar fuqaro xorijda ishga joylashtirilgan. Xususan, Angliyaga 324 nafar, Rossiyaga 156 nafar, Janubiy Koreyaga 76 nafar, Germaniyaga 32 nafar viloyatdoshimiz tashkiliy tarzda ketgan. Yil oxirigacha jami 21 ming nafar samarqandlikni xorijga qonuniy asosda ishga jo'natish ko'zda tutilgan.

— Tartibli mehnat migratsiyasi nafaqat xavfsiz ish sharoiti, balki kafolatlangan ijtimoiy himoya ham degani, - deydi Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi viloyat filiali rahbari Laziz Ibragimov. — Misol uchun, o'tgan 4 oyda xorijda ishlash istagini bildirgan 2371 nafar samarqandlik kasb va til kurslarida o'qitildi. Tashkillashtirilgan tarzda chetga ishlash uchun yuborilgan 488 nafar fuqaroning hayoti va sog'lig'ini sug'urtalash polislari xarajatlari qoplab berildi. 92 nafariga imtiyozli kredit ajratilib, parvoz va boshqa xarajatlari qoplanishiga ko'maklashildi. Shuningdek, mehnat migrantlarining 2294 nafar oila a'zolariga moddiy, huquqiy, ijtimoiy va boshqa yordamlar ko'rsatildi.

Umuman olganda, yaqin yillarda mamlakatimizda mehnat migratsiyasiga bo'lgan munosabat tubdan o'zgarganligini tan olishimiz kerak. Ilgari xorijda ishlash, huquqlari poymol bo'lgan fuqarolarimizning dardi o'zi bilan qaytib kelardi. Bugunchi? Bugun ular tegishli davlatlardagi konsullik yoki boshqa huquqiy ko'mak markazlariga murojaat qilib, buzilgan huquqlarini tiklash imkoniyatiga ega. Albatta, bu imkoniyatlardan to'liq foydalanish, undan ham muhimi, shu kabi noqulay vaziyatlarga tushib qolmaslikning birgina sharti bor, u ham bo'lsa, tartibli mehnat migratsiyasidan foydalanish.

MIGRANTLARNI IJTIMOY-HUQUQIY HIMORA QILISH TIZIMI TAKOMILLASHMOQDA

- Yaqinda Prezidentimiz tomonidan “Mehnat migratsiyasi jarayonlarini takomillashtirish hamda xorijda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan shaxslarni qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi farmon qabul qilindi, - deydi Laziz Ibragimov. - Unga muvofiq, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi huzuridagi Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi davlat korxonasi davlat muassasasiga aylantirilib, uning hududiy boshqarmalari, 2024-2025-yillarda esa Buyuk Britaniya, Germaniya, Turkiya va Saudiya Arabistonida vakolatxonalarini yoki mehnat migrantlarini huquqiy himoya qilish markazlarini ochish belgilandi. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasining Buyuk Britaniya, BAA, Vengriya, Germaniya, Latviya, Polsha hamda Yaponiya davlatlaridagi diplomatik va konsullik muassasalarida 1 ta shtat birligidan iborat mehnat migratsiyasi masalalari bo'yicha attashe lavozimi joriy qilinmoqda. Bu birinchi navbatda, qonuniy mehnat migratsiyasi imkoniyatlari har bir xonadon va

fuqaroga yetib borishini ta'minlasi, ikkinchidan, chetda bo'lgan fuqarolarimizning huquq va manfaatlarini himoya qilish mexanizmi samaradorligini oshiradi.

Farmon bilan joriy yilning 1-iyunidan boshlab Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi huzuridagi Xorijda mehnat faoliyatini amalga oshiruvchi shaxslarni qo'llab-quvvatlash hamda ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish jamg'armasi mablag'lari hisobidan mehnat migratsiyasiga ketayotgan fuqarolarga xoriijiy tillar va kasb bo'yicha malaka imtihonlarini topshirish bilan bog'liq xarajatlari (agar ular muvaffaqiyatli topshirilganda va sertifikat olinganda) qoplash uchun bazaviy hisoblash miqdorining uch baravarigacha miqdorda kompensatsiya to'lanishi belgilangan. Bundan tashqari, ular xorijda “ishchi viza”ni rasmiylashtirish bilan bog'liq xarajatlari qoplash uchun bazaviy hisoblash miqdorining besh baravari, yo'l chiptasini xarid qilish bilan bog'liq xarajatlari qoplash uchun bazaviy hisoblash miqdorining ikki baravarigacha kompensatsiya olishi mumkin.

Xorijda mehnat qilish davrida zo'ravonlikka, majburiy mehnatga duchor bo'lgan va kamsitilgan, mehnat hamda boshqa huquqlari buzilgan, murakkab moliyaviy ahvolga tushib qolganlarga advokat, yuridik xizmatlar ko'rsatuvchi tashkilotlar yoki huquqni muhofaza qilish tashkilotlarining xizmatlari uchun belgilangan haq ham jamg'arma mablag'lari hisobidan qoplanishi belgilangan.



CALL-MARKAZ, MOBIL ILOVA, ISH BERUVCHIGA SUBSIDİYALAR...

Hujjatda yaqin va uzoq kelajak uchun mo'ljallangan yana qator vazifalar belgilangan. Jumladan, 2024-yilning 1-sentabriga qadar mehnat migrantlariga yordam ko'rsatish uchun tunu kun ishlaydigan Call-markaz faoliyatini tashkil etish nazarda tutilmoqda. Ahamiyatlisi, unga chet eldan chiquvchi abonentlar uchun qo'ng'iroqlar bepul bo'ladi. 2025-yilning 1-iyuligacha esa mehnat migrantlari uchun bo'lib turgan mamlakatlar va u yerdagi bo'sh ish o'rnlari to'g'risida ma'lumotlarni joylashtirish, vatandoshlar bilan onlayn muloqot qilish va pul o'tkazmalarini amalga oshirish, qiyin hayotiy vaziyatga tushib qolgan fuqarolarga yordam ko'rsatuvchi tashkilotlar bilan bog'lanish imkonini beruvchi mobil ilova yaratilishi belgilangan.

Farmon bilan shu yilning 1-iyunidan mehnat migratsiyasidan qaytgan shaxslarni ishga qabul qilgan ish beruvchilarga Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi mablag'lari hisobidan (budjet tashkilotlari, davlat korxonalari, ustav kapitalida davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan yuridik shaxslar bundan mustasno) har bir ishga olingan shunday xodim uchun 12 oy davomida oyiga 500 ming so'mdan subsidiya to'lanadi. Bu tartib 2026-yilning 1-yanvariga qadar davom etadi. Shuningdek, Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligining “Onlayn mahalla” elektron platformasida “Reintegratsiya” moduli yaratiladi. Har bir mahallada “mahalla yetiligi” tomonidan mehnat migratsiyasidan qaytib kelgan shaxslarni xatlovdan o'tkazish va natijalarini “Reintegratsiya” moduliga kiritish amaliyoti yo'lga qo'yiladi.

Shuningdek, 2024-yilning 1-iyuliga qadar “In-son” ijtimoiy xizmatlar markazlari negizida ota-onasi xorijda mehnat qilayotgan bolalarga ijtimoiy yordam ko'rsatish amaliyoti joriy qilinmoqda. 2025-yildan esa migrantlarning og'ir ahvolga tushib qolgan yoki shunday ahvolga tushib qolish xavfi yuqori bo'lgan oilalarini muntazam ravishda monitoring qilib, ijtimoiy xizmat va yordamlar ko'rsatish boshlanadi.

Asqar BAROTOV,
“Zarafshon” muxbiri.

Ko'pchilikka yod bo'lib ketgan bu satrlar o'zbek va tojik adabiyotining yirik vakili, taniqli shoir, jurnalist O'lmas Jamol qalamiga mansub.

O'zbek va tojik xalqlarining ardoqli farzandi, g'azalxon shoiri hayot bo'lgani-da bugun 90 yoshga to'lardi. Sana munosabati bilan O'lmas Jamol tug'ilib o'sgan Urgut tumanida madaniy-ma'rifiy tadbirlar tashkil etildi.

Unda O'zbekiston va Tojikiston Yozuvchilar uyushmalari a'zolari, adabiyotshunos olimlar, davlat va jamoat arboblari, shoirning oila a'zolari va yaqinlari, adabiyot ixlosmandlari ishtirok etdi.

Dastlab shoir yashagan xonadonda O'lmas Jamol yod etilib, Qur'on tilovat qilindi. Uy eshigi yonida shoir haqida ma'lumot beruvchi lavh o'rnatildi.

Shundan so'ng tumanning Mergancha massivida O'zbekiston va Tojikiston hamkorligida bunyod etilgan 154-umumta'lim maktabida adabiy-ma'rifiy kecha o'tkazildi.

Oliy Majlis Senati a'zosi Farmon Toshev, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi o'rinbosari G'ayrat Majid, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, taniqli shoir Xosiyat Bobomurodova, "Vatandoshlar" jamoat fondi raisi Odiljon Sattorov, Tojikistondagi "Xalq ovozi" gazetasi bosh muharriri Yoqubjon Abdumannonzoda va boshqalar O'lmas Jamolning adabiyot, o'zbek va tojik she'riyati rivojiga qo'shgan hissasi haqida so'z yuritdilar, shoirning ikki xalq do'stligini yanada mustahkamlashga

“O‘zbekiston o‘g‘lidurman, tojigim gufto pisar”



qo'shgan hissasini e'tirof etdilar. – O'lmas Jamol O'zbekistonda tug'ilib, Tojikistonda kamol topdi, – dedi O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Samarqand viloyat bo'limi rahbari Toshpo'lat Tugalov. – Shu bois u bir umr o'z ijodida ikki xalqni, do'stlik va yaqin qo'shnichilikni tarannum etdi. Toshkent va Dushanbe nashriyotlarida shoirning o'ndan ortiq kitoblari chop

etilgan. O'lmas Jamol Tojikistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist unvoni, "Do'stlik" ordeni bilan mukofotlangan. Tadbirda Samarqand davlat universiteti Urgut filiali talabalari va 154-maktab o'quvchilari tomonidan shoir she'rlaridan namunalar o'qildi. O'zbekiston va tojikistonlik san'atkorlar tomonidan O'lmas Jamol she'rlari asosida yaratilgan qo'shiqlar ijro etildi.



Bobur ijodi xalqaro tahlil va tadqiqqa munosib

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida “Zahiriddin Muhammad Bobur adabiy merosining jahon adabiyotida tutgan o'rni va ahamiyati” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjuman tashkil etildi.

- Zahiriddin Muhammad Boburning ijodiy-ilmiy merosi nafaqat xalqimiz, balki jahon adabiyoti tarixida, milliy madaniyatimiz va adabiy-estetik tafakkurimiz rivojida alohida o'rin tutadi, - dedi SamDU professori J.Eltazarov. - Uning birgina “Boburnoma” asari haqli ravishda jahon adabiyotining eng nodir durdonalaridan biri sifatida har tomonlama tahlil va tadqiqqa munosib.

Anjumanda mamlakatimiz hamda Misr, Turkiya, Hindiston, Pokiston, Tojikiston va Qirg'iziston Respublikasidan kelgan olimlar mutafakkirning adabiy merosi haqida fikr bildirdi.

Anjumanda taqdim etgan ilmiy tadqiqotlar asosida “Boburnoma” me'muari, yangi topilgan “Taqtir” risolasi, Boburshoh va boburiylar davrini aks ettirgan turk adiblari tazkiralarining ahamiyati xususida ilmiy-nazariy xulosalar jamlandi.

Yalpi majlisdan so'ng Boburning etnografiya, davlatchilik va huquq masalalariga doir qarashlari anjumanining shu'ba yig'ilishlarida muhokama qilindi.

Yozgi oromgohlarga 20 ming nafardan ortiq bola jalb etiladi

Bu haqda Urgut tumanining “Chorchinor” bolalar yozgi dam olish oromgohida bo'lib o'tgan seminarida aytiladi.

Ta'kidlandiki, bu yil 15 ta statsionar oromgohda 9 ming 610 nafar, 61 ta kunduzgi oromgohda 11 ming nafardan ziyod bolajonlarni dam oldirish rejalashtirilgan. Joriy yilgi mavsumda statsionar oromgohlarda 60 nafar tarbiyachi, 60 nafar yetakchi faoliyat ko'rsatishi belgilanib, qo'shimcha 112 nafar zaxira pedagoglar ro'yxati shakllantirilgan.

Oromgohlar faoliyatini muvofiqlashtirib borish, aniqlangan kamchiliklarni tezkorlik bilan bartaraf etish maqsadida kasaba uyushmalari federatsiyasi tizimida bolalarning dam olishini va sog'lomlashtirilishini tashkil etish departamenti viloyat boshqarmasida alohida shtab tashkil etiladi.

Seminarida oromgohlarga mas'ul viloyat IIB, sog'liqni saqlash, maktab va maktabgacha ta'lim, sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi, sport, favqulodda vaziyatlar boshqarmalari, Milliy gvardiya mas'ullari mavsumga tayyorgarlik bo'yicha amalga oshirilgan ishlar haqida ma'lumot berdi.

Viloyatdagi oromgohlar o'rganilganda ayrimlari davlat suv havzalaridagi foydalanish ishlari yakuniga yetmagani, atrofi o'tlardan tozalanmagani, yong'in xavfsizligi talablariga javob bermasligi aniqlangan. - Departament tashkil etilgani oromgohlarning tizimli ishlashi va ularning nazoratini ta'minlaydi, - deydi Sog'liqni saqlash xodimlari kasaba uyushmasi respublika kengashi raisi Farhod Xanapiyev. - Qolaversa, oromgohlarga bolalarni majburlab emas, ixtiyoriy borshiga imkon yaratadi. Buning uchun oromgohlarda qiziqarli loyihalar, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar sonini oshirish kerak. Chunki bola chiroyli binolar yoki sharoitga emas, kunining mazmunli o'tganiga qarab baho beradi.

Seminar yakunida ishtirokchilar “Chorchinor” oromgohida yaratilgan shart-sharoitlar bilan tanishdi.

Husan ELTOYEV.



REKLAMA, E'LONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUHOJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

YIG'ILISHDA QATNASHING!

Samarqand shahridagi “MARMAR-BOZORI” dehqon bozori mas'uliyati cheklangan jamiyati ta'sischilarining navbatdagi umumiy yig'ilishi 2024-yil 20-iyun kuni soat 10:00 da jamiyatning ma'muriy binosida bo'lib o'tadi.

Kun tartibida:

- jamiyat raisining 2023-yil yakunlari bo'yicha hisoboti;
- jamiyatning 2024-yilgi biznes-rejasini tasdiqlash;
- boshqa masalalar.

**YIG'ILISHGA
BARCHA
TA'SISCHILARNI
TAKLIF ETAMIZ.**

MANZIL:
Samarqand shahri Shohrux ko'chasi,
33-uy. “MARMAR-BOZORI” dehqon
bozori mas'uliyati cheklangan jamiyati.

JAMIYAT MA'MURIYATI.

QO'LLARINGIZ DARD KO'RMASIN!

To'qqiz yildan buyon pensiyadaman. Chap qo'lim singanligi sababli meni Respublika ixtisoslashtirilgan travmatologiya va ortopediya ilmiy-amaliy tibbiyot makazi Samarqand filialiga olib kelishdi. Zudlik bilan operatsiya qilishdi. 15 kun davomida davolandim. Ahvolim kundan-kun yaxshilandi. Shifoxonada yaratilgan sharoitlar, shifokorlarning muomalasi havas qilgudek. Ushbu xastalikni yengishim uchun elib-yugurgan shifoxona jamoasidan 2-bo'lim boshlig'i Olmijon Ro'ziqulov, davolovchi vrachlar Anvar Mannonov, Aziz Mirzayev, O'lmasjon Berdiboyev, hamshiralar Sabina Ahmedova, Zuhra Qurbonova, Dildora O'rozova, Xurshida Hamroqulova va kichik tibbiyot xodimlaridan minnatdorman. Sizlarga mustahkam sog'liq, mashaqqatli ammo sharaflil kasbingizga omad tilayman. Rahmat sizga, qadri baland, qo'li em shifokorlar!

**Tolib URUNOV,
Samarqand tumani.**

Bulung'ur tumanidagi 39,4 mingga yaqin aholi tasarrufida 3930 gektardan ortiq tomorqa yer maydoni bor. Joriy yilda ekin maydonlariga asosiy va takroriy, to'qsonbosti usulida poliz-sabzavot, kartoshka, dukkakli va boshqa ekinlar ekilgan. Qulay joylashuv, unumdor yer tomorqadan yuqori daromad olishda qo'l kelishiga tumanga uyushtirilgan press-turda guvoh bo'ldik.



KO'CHATNI “TANGAGA SOTIB” BOY BO'LISH MUMKINMI?

Dastlabki manzilimiz - Zarafshon mahallasidagi qaysi xonadonga kirmaylik odamlar tomorqasida piyoz, pomidor, bulg'or qalampiri ko'chati yetishtirayotganini ko'rdik. Ko'chat ortidan yaxshigina daromad olisharkan. Bir safar boshqa hududda yashovchi kambag'al oilaga tomorqasida ko'chat yetishtirib, sotib daromad olishni taklif qilganimda “Ko'chatni tangaga sotib, katta daromad qilish mumkinmi?” degandi. Qish paytida kamxarajat issiqxona qurib, ko'chat ekish orqali bahorda yaxshigina daromad olish mumkin ekan. Mahalladagi Fayzulla Hotamov xonadonida bo'lganimizda bunga guvoh bo'ldik. 66 yoshli otaxon 6 sotix ekin maydonida 100 ga yaqin mevali daraxtdan tashqari, har yili fevral oyida 4 sotixli issiqxonada piyoz ekadi, may oyida 50-60 sotix yerga yetadigan ko'chat chiqaradi. Piyoz ko'chati sotishdan 17 million so'm, 60 metrli ikkinchi issiqxonadagi bulg'or qalampiri ko'chatidan 9 million so'm daromad olardik. Ko'chatdan bo'shagan maydonga bulg'or qalampiri ekib, tumandagi “Bulung'ur Sandvik” MChJga shartnoma asosida sotadi. Sentabrda esa ekindan bo'shagan yerga sarimsoqpiyoz ekib mart oyida ko'kat holida sotadi.

- Mevalarni o'zimiz iste'mol qilganimiz, bozorga sotganimizdan tashqari 6 sotix yerdan yilda o'rtacha 35 million so'm daromad qilamiz, - deydi F.Hotamov. - O'tgan oy mahallamizdagi hokim yordamchisi chorva va parranda uchun imtiyozli kredit berilayotganini aytib qoldi. 18 oy imtiyozli davr bilan to'rt yilga 27 million so'm kredit olib, 17 million so'miga “Zarafshon loman parranda” korxonasidan bir oylik ozuqasi va qafaslari bilan 160 bosh parranda oldik. Qolgan pulga bir juft chorva xarid qildik. Tovuqlar o'n kun o'tib, tuxum bera boshladi. Hozir kuniga 145-150 tagacha tuxum olamiz. Tuman tibbiyot birlashmasi bilan shartnoma tuzib, donasini 1000 so'mdan sotaymiz. Chorvadan kuniga 6 litr sut olib, ehtiyojdan ortganini sotamiz. Uydan chiqmasdan kuniga 200 ming so'mgacha daromad qilaymiz.

Fayzulla akaning qo'shnisi Bahodir Tojiboyev kredit hisobidan 160 bosh parranda olgan va 1,5 sotixli issiqxona qurgan. Yetishtirilgan tuxumni korxonaning o'ziga sotadi. Yil boshidan buyon mahalladagi daftarlarda turuvchi, ishsiz fuqarolarning 13 nafariga imtiyozli shartlarda kredit ajratilib, bandligi ta'minlangan va daromad manbai yaratilgan.

BIR MAHALLA – BIR MAHSULOT

Tumanning Gulobod mahallasida istiqomat qiluvchi Abduxoliq Isoqov tasarrufida 37 sotix tomorqa maydoni bor. Xonadondagi 200 tupga yaqin mevali daraxt, uzum va ekinlar parvarishi bilan barcha oila a'zolari shug'ullanadi va shu mehnati ortidan yaxshigina daromad qilishmoqda. Oddiy hisoblaydigan bo'lsak, 6 sotixdagi bulg'or qalampiridan 35 million so'm, 3 sotixdagi kartoshkadan 2 tonna hosil va 20 million so'm, bulg'or qalampiri ko'chatidan 10 million so'm, sentabrda bo'shagan yerga ismaloq va sarimsoqpiyoz ekiladi. Oila a'zolari mehnatlari orqali tomorqadan yiliga 150 million so'm daromadga ega bo'larkan. Shu daromad hisobidan tomorqaning to'rt tarafidan to'rt o'g'ilga uy qurgan oila 33 million so'm kredit olib, 200 bosh parranda va 8 bosh qo'y xarid qilibdi. Kuniga 160 tadan ortiq tuxum bozorga chiqarilib, ro'zg'orga qo'shimcha daromad keltirmoqda. Tomorqa, chorva va parrandaning foydasini qo'shsak, oilaning daromadi 200 million so'mdan ham ortadi.

- Dastlabki hisob-kitoblarimizga ko'ra, bu yil tomorqalarda 163,2 ming tonna mahsulot yetishtiriladi, - deydi tuman hokimining birinchi o'rinbosari Sherzod Ibragimov. - Yetishtirilgan mahsulotni qayta ishlash bo'yicha 5 ta korxona bilan shartnomalar tuzilgan. Shuningdek, yil davomida tuman bo'yicha uch marta hosil olishga imkon beradigan 1042 ta ixcham issiqxona tashkil etib, qo'shimcha 2813 tonna hosil yetishtiriladi. Tumandagi 55 ta mahallada ijtimoiy daftarlarga kiritilgan xonadonlar o'rganilib, 275 ta xonadonga chorva mollari, qo'y, bedana, parranda berilib, ularning doimiy daromad manbaiga ega bo'lish imkoniyati yaratildi.

“Bir mahalla – bir mahsulot” tamoyili asosida tumandagi 51 ta mahallani ixtisoslashtirish bo'yicha ishlar olib borilmoqda. Aholi tomorqalarida ixcham issiqxonalarida mahsulot yetishtirayotgan Sarqipchoq va Gulzor mahallalari tajribasi barcha hududlarga keng joriy qilinmoqda.

O'ktam XUDOYBERDIYEV.

DA'VOLAR BO'LSA

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ahtamov Erkinjon Tolibjonovich notarial idorasida marhum Radjabov Babakulga (2020-yil 12-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ahtamov Erkinjon Tolibjonovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand tumani Xo'ja Ahrori Vali mahallasi

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasida marhum Xakimov Anvarga (2015-yil 4-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Jomboy tumani Saroy ko'chasi, 15-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasida marhum Isaqov Amnonboyga (2021-yil 7-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 76-uy.

BEKOR QILINADI

Samarqand shahridagi “GRAND FAYZ SAMARQAND” mas'uliyati cheklangan jamiyatining (STIR: 309149717) dumaloq muhri yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Kitob o'qimoq kelajakni yaratmoqdir

↓ **Mulohaza uchun mavzu**

Ko'plab davralarda, anjumanlarda qat-nashishga to'g'ri keladi, odamlar bilan muloqotda bo'lgan. Ularda ishtirok etayotgan inson o'zini bilib-bilmay "taqdim etadi". Bu taqdimot uning muomalasidan, odobidan, o'zini tutishidan ma'lum bo'ladi. Qay darajada aql-zakovatga ega ekanligi seziladi. Xo'sh, o'zlikni anglashni qayerdan o'rganamiz?

El netib topgay menikim, men o'zimni topmasam, deydi hazrat Navoiy. Millionlab, milliardlab odamlar orasida odam o'zini qanday topadi, o'zining kimligini qanday anglaydi, jamiyatdagi o'rini, qadr-qimmatini qanday his qiladi? Bu savollarga "kitob o'qish orqali", deb javob bergan bo'lardim. Chunki insonning kitob o'qiganligi uning mulohazaliligi, odobi, izzat-hurmatni joyiga qo'yishi, muomalasi, odamlar bilan muloqotda bo'lganida o'zini boshqara olishi, boshqalarni tinglay bilishi, har bir ishga mas'uliyati, javobgarlik hissini sezishi kabi ko'plab omillarda bilinadi.

Davlatimiz rahbari "Kitob mutolaasiga havas avvalo, oiladan boshlanishi, ota-onalar farzandlarida kitob o'qishga mehr uyg'otishi uchun o'zlari kitobxon bo'lishlari lozim", deganda qanchalik haq ekanligi xayolimdan o'tadi. Bu gaplardan xulosalar chiqaraman. Demak, auditoriyada – sening qarshingda talabalar emas, bo'lajak ota-onalar va muallim-murabbiylar turibdi. Kitobga bo'lgan qiziqishni uyg'otuvchi, unga mehr qo'yishni o'rgatish mexanizmini ishga soluvchi va undan manfaat ko'ruvchi insonlar turibdi. Binobarin, saboqlarning maqsadi ana shu mexanizمنى ishga solish yo'llarini ko'rsatishdan va unga amal qilishda o'rnak bo'lishdan iborat.

O'zbekiston Qahramoni Ozod Sharafiddinov «Men bir narsaga hayron bo'laverman. Qachon qaramang, to'rtta odam yig'lsa, farzand tarbiyasining og'irligi, ularni odam qilishning azobligi to'g'risidagi hasratga duch kelamiz. O'-o'-v birodarlar, buning eng oson, eng arzon, eng samarali yo'li – usuli shundoq yoningizda turibdi-ku! Bolangizni kitob o'qishga o'rgatib, uning ko'nglida badiiy adabiyotga mehr va muhabbat uyg'otib, farzandlarigizga uch-to'rt so'mni qizg'anmay, kitob olib bering! Axir dunyoda kitobdan ham aqlliyoq, undan ham dono-roq biror ustozni topib bo'ladimi? Odamni odam qiladigan kuch-qudrat, hikmat, go'zallik, aql va odob kitoblarda. Nahotki, bu buyuk ne'matdan, bebaho boylikdan bebahra bo'lib ham odam

bo'lish mumkin deb o'ylasangiz?!», deya adolatli gapni aytadi.

Bundan 60-65 yillar avval, 4-5-sinflarda o'qigan paytlarimizda Gadoy Muqimov adabiyot fanidan dars berardi. U kishi bizni "kitob o'qinglar", deb da'vat qilmasdi. Har bir darsning ma'lum qismini o'zi o'qigan badiiy adabiyotning mazmunini aytib berishga ajratardi. Ustoz hikoya qilib bergan "Klin daraxtining bargi" kitobining nomi va undagi qahramon kapitan Doroshenko yodimda qolgan. Otamning do'sti, "Ulus" sovxozining bosh injeneri Dmitriy Kazakov 10 so'm pul berganida Pushkinning shoh Sulton haqidagi ertaklarini, "O'zbek xalq ertaklari"ning 1-2-kitoblarini sotib olganimni xotirlayman. Arzimas gap bo'lib tuyulgan bu hikoya hayotimning zarvarag'i, birinchi muallimimdan, meni xayolan ertak qahramonlariga aylantirgan kunlarimdan esdalik. Bunaqa misollar har birimizning hayotimizda bor...

Bugungi tahlilali zamonda, katta davlatlarning kichik mamlakatlarni qaram qilish, katta xalqlarning kichik xalqlarni o'zlariga singdirib yuborishga yo'naltirilgan goh ochiq, goh yashirin siyosatiga guvoh bo'lyapmiz. Ayrim yoshlarning ma'naviyati, madaniyatini kuzatib, shuni aytish mumkinki, har bir yurtidoshimiz qalbida Vatanni sevish, uning himoyasi uchun kurashish immunitetini hosil qilishimiz kerak. Vatan tuyg'usini, tinchlikning mohiyatini qalbdan his qilish, odam uchun eng zaruri odamiylik ekanligini anglab yetmoq uchun ham kitob o'qimoq lozim.

Xalqimizning necha ming yillik tarixi va taqdiri aks etgan ilmiy va badiiy adabiyotlarni o'qimasdan turib, bugungi globallashuv jarayonlarida ommaviy madaniyatning xurujlariga bardosh bera oladigan yoshlarni tarbiyalash, albatta, qiyin.

Ulug' yozuvchimiz Abdulla Qahhorning "Kitob shavq bilan o'qilishi kerak", degan o'gitini talabalariga hamisha eslatib kelaman. Chunki insonda hayotdan zavqlanish tuyg'usi bo'lishi shart. Ammo bu tuyg'ular o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi. Buning uchun ham kitob o'qish kerak.

Aslida kitob o'qishning o'zi-ga xos qoidalar bor.

Birinchidan, har bir kishi



undan zavq
Zero, asarni sinchikib o'qigan o'quvchi har qadamda yozuvchining metaforik tafakkur qilishiga sherik bo'ladi, u yaratgan favqulodda so'z va iboralar ustida bosh qotiradi.

Badiiy matn mutolaasida estetik olamni idrok etishning samarasi katta. Shunchaki, ko'z yugurtirib, yuzaki o'qilgan emas, balki mulohaza yuritib mutolaa qilingan kitoblarga esda qoladi, bilim saviyamizni oshiradi. Kitob o'qish – bu fikrlash mashqi, aqliy mashg'ulot.

Bugungi suronli zamonda kitob o'qishga bemaolol vaqt topa oladigan odamni topish qiyin, albatta. Uni bo'lib-bo'lib o'qiymiz, bir necha kun o'qiymiz. Oxirini o'qib bo'lguncha boshi esdan chiqib ketadi. Olimlarimiz esa kitobni tushunish va mulohazaning mukammal bo'lishi uchun esa o'qishda uzilish bo'lmasligi kerakligini aytishadi. Demak, o'zini ziyoliman deb hisoblaydigan kishining kun tartibida kitob o'qish uchun qat'iy ajratilgan vaqt-soat bo'lishi maqsadga muvofiq.

Hindistonlik Muhammad Anvarshoh Kashmiriy shunday gaplarni yozadi: «Men 137000 kitob o'qidim. Farazan, Devband kutubxonasi yonib ketssa ham, o'zim uchun zarracha tashvish chekmayman. Chunki u yerdagi kitoblarning hammasini yodlab olganman». Ma'lumotlarga ko'ra, u zotni ustoz tutganlarning soni 2000 dan oshgan.

Frantsuz faylasuf yozuvchisi Deni Didro "Odamlar o'qishdan to'xtashlari bilan fikrlashdan ham to'xtaydilar", degan. Mana, nima uchun ayrimlarimiz hayotda xatolarga yo'l qo'yamiz, fikrlashimizning maromi-ga yetmaganidan, xulosalarimizning sayozligidan aziyat chekamiz?

Bugungi oilaviy ajrimlarning aksariyati yoshlarda ma'naviyatning yetishmasligidan, dunyoqarashning torligidan kelib chiqyapti. Ular kitob o'qimasa, dunyoqarash qayerdan paydo bo'lsin? Kechagina turmush qurayotgan

yoshlarimiz tibbiy ko'rikdan o'tishni o'zlarini kamsitish, bir-birlariga ishonchsizlik deb qabul qilishardi. Hozir ularda bu fikr yo'q-ku!

Kitob o'qigan odam davra suhbatlarida, oilada uning mazmun-mohiyatini gapirib bersa, yoshlarda mutolaaga ishtiyok oshadi.

Aslida kitob o'qishga da'vat qilish yangi mavzu emas. Ko'p yillik hayotiy, ilmiy-pedagogik tajribaga ega inson sifatida aytamanki, mutolaa kishini tafakkur qilishga o'rgatadi, to'g'ri, adolatli xulosalar chiqarishga yordam beradi, inson qalbida go'zallik olamini yaratadi. Kitob o'qigan kishi Haq yo'lida bo'ladi, birovga yomonlik qilishga qo'li bormaydi. Chiroyli va yaxshi gapirishga odatlanadi, taqlicdan qutuladi, mustaqil fikrlashga o'tadi. Muomala-muloqotda madaniyatli insonga aylanadi.

Xalqimiz O'zbekistonning dunyo hamjamiyatidan munosib o'rin egallashi, rivojlangan, taraqqiy etgan mamlakatlar va xalqlar qatorida bo'lishga intilmoqda. Orzu-niyatlarimiz va rejaralarimizning amalga oshishi ma'naviyatimizning yuksakligiga bog'liq. Ma'naviy yetuk jamiyatni esa mutolaasiz tasavvur qilish mumkin emas. Shuning uchun ham kitob o'qish ehtiyoji ma'naviyatli jamiyat uchun hamisha dolzarb bo'lib qolaveradi.

Suyun KARIMOV,

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Faxriylar kengashi raisi, professor.

SHU OYDA TAVALLUD TOPGANLAR

18-MAY

O'tkir NURULLAYEV – (1941-2016)

Paxtachi tumanida tug'ilgan. Jamoat arbobi, shoir.

20-MAY

Obloqul USMONQULOV – 1938-yilda Payariq tumanida tug'ilgan. O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist. «El-yurt» ordeni sohibi.

22-MAY

O'lmas MAHMATMURODOV – (1941-2016)

Urgut tumanida tug'ilgan. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi.

25-MAY

Abdurashid JABBOROV – 1950-yilda Samarqand shahrida tug'ilgan. Biologiya fanlari doktori, professor.

30-MAY

Isroil JUMANOV – 1943-yilda G'allaorol tumanida tug'ilgan. Texnika fanlari doktori.

MEN HAYOTGA AYTISHIM KERAK

ISHQ

"Faqat ishq...
Faqat ishq...
Boshqasi sarob,"
(Shavkat Rahmon)

Ishqimni qumriga tumorcha qildim,
Qizil munchoq qilib, taqdim bo'yniga.
Bir uchdi, bir qo'ndi, meni gal qilib,
Tumorimni olib ketdi bo'ynida.
Har yili to'rt fasl yo'lga qaradim,
O'sha tus, o'sha ko'rk, o'sha o't nigoh.
Har bahor ko'ksimni iforga o'rab,
Har qish yuragimni qorga burkab - oq.
Xayolan qumrilar kelib ayvonga,
Kukur-kukur qilar, navo yeladi.
Hech narsa kirmaydi, quloqlarimga,
Faqat ishq!.. Ishq!.. - degan, sado keladi...
Ishqimni qumriga tumorcha qildim.
Qizil munchoq qilib, taqdim bo'yniga.
Bir uchdi, bir qo'ndi, meni gal qilib,
Tumorimni olib ketdi bo'ynida.

Boshqalardek yashay olmadim,
Kimdir kesdi, kimdir butadi.
Men ekdim-u o'stirdim, yana
Kesilganning haqqin o'tadim.
Atirgulni, binafsha, nargis
Tanlab-tanlab terdirganlar bor.
Men ulardek qo'l uzatish-u,
Uzmoqlikni ishin bildim or.
Qopqonlardan sakrab, chap berib,
Kim bo'ri-yu, kim sirtlon bo'lar.
Mening esa qon-qon ko'ksimga
Qurbonliklar sadosi to'lar.

Bozorlardan quruq qaytsam ham
Nomusimni yo'lga solmadim.
Kim ne desa deyaversin, men -
Boshqalardek yashay olmadim!
Ayblov e'lon qildim o'zimga,
Ming bor o'lib, pushaymonlar yeb.
Bo'g'zim bo'g'ib turar bir savol,
Xalqim uchun, nima qildim?! deb.
Boshqalardek, yashay olmadim.
Yashamoqqa qo'yilsa baho
Yurti uchun, tuprog'i uchun,
Yashamasa,
Yashamoq, xato!

Men hayotga aytishim kerak,
Tunning qora, tongning oqligin.
Erkni sevib, yashayotgan el,
Mangu bedor va uyg'oqligin.
Men toshlarga aytishim kerak,
Makonini yuksak tog'ligin.
Yaproqlarni supurib har kuz
Eng buyuk baxt yashamoqligin.
Daraxtlarga aytishim kerak,
Rangin gullar kutayotganin.
Ezgulik va muhabbat sassiz,
Yonlaridan o'tayotganin.
Shamollarga aytishim kerak,
Bu dovullar ermakligini.
Ishq ahliga sarrin yellaru
Toza havo kerakligini.
Men dengizga aytishim kerak,
Tashnalikning so'ngiga yetsin.
Ishq-la yongan, otash-la yongan,
Yuraklarga qo'shilib ketsin!
Men gullarga aytishim kerak,

Qirmizi rang iforlarini.
Boshni tutib qaychi tig'iga,
Gullamoqning shiorlarini.
Sen aytmasang bilmaydimi? deb,
Yuragimni o'rtamang battar.
Men aytmasang, siz aytmasangiz,
Bu gaplarni yana kim aytar?!
Men hayotga aytishim kerak,
Tunning qora,
Tongning oqligin.

Zamin haqqi, osmon haqqi,
Dillarga nur ber, Egam.
Sadolaring qaqsar o'ksib,
Gunohim ne der, Egam.
Bu fanoni yaratgansan,
Yaralmishning aybi ne?
Jonzodlarning nafs o'tida
Bir-birini yer, Egam.
Inson zoti buyuk kelar,
Inson zoti past ketar.
Ikkisining ham diliga
O'zing insof ber, Egam.
Yosh tommasin kosasiga,
Nohaqq kuyib yonmasin.
Berar bo'lsang, faqat dil ber,
Faqat g'urur ber, Egam!
Qizi bo'lsa, nomus desin,
O'g'li desin matonat,
Men yurtimga yurak bo'lay,
Bo'lay desin er, Egam!..
Oltovidan ola chiqib,
Oldirmasin orini.
Berar bo'lsang birdamlik ber,
Hamjihatlik ber, Egam!

Hayot faqat mardlar uchun,
Nomardlarni yaratma!
Yaxshilarga omad bergin,
Menga esa she'r, Egam!

Ichkarida so'ngsi urush,
Jangu jadal avjida.
Haqiqat va yolg'on turar,
Do'stu dushman tarzida.
Tashqarida omon-omon,
Haq va nohaq barobar.
Yomonliklar bo'y cho'zadi,
Yerdan samoga qadar.
Ichkarida qozi odil,
O'g'ri, qotil qolmadi.
Bitta-bitta kesdi qo'lin,
Bitta-bitta bog'ladi.
Tashqarida hanuz yetim-
Yesir haqqi kesilar.
Mehr istab, qancha-qancha
Kemtik dillar ezilar.
Ichkarida kurashadi,
Bir zabardast pahlavon.
U ruhingiz qudratidir,
U qilichdir, al-omon!
Tashqarida qiqir-qiqir,
Zamin inson poyida.
Hamma narsa davomlidir,
Hamma narsa joyida.
Razolatni otib, osib,
O'ldirganlar o'lmasin.
Dilda urush bo'lsa bo'lsin,
Elda urush bo'lmasin!

Jumagul SUVONOVA,

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi.



Qahramonlik kashf etolmayin,
Mo'jiza ham yaratolmay rost,
Kamtarinlik libosin kiyib,
Men shunchaki, sevaman, xolos!
So'z ochmayin ko'ngildan, ishqdan,
Manfaatlar kutmayin bexos.
Sezdirmayin borligimni ham
Men shunchaki, sevaman, xolos!
Muhabbat mast etolmas meni,
Kelib gap ham qotolmas noxos.
Chetga surib hamma narsani,
Men shunchaki, sevaman, xolos!

MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida
2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438.
12 101 nusxada chop etildi. Buyurtma Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LONLAR: (66) 233-91-56

BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Korxona manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti:
soat 18:30 da.
Bosishga topshirildi:
soat 19:00

Navbatchi muharrir:

G'.HASANOV.

Navbatchi:

O'.XUDOYBERDIYEV.

Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.



Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



Sotuvda narxi kelishilgan holda